

Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Ilmiy faoliyat” interaktiv xizmatining reglamanti

1. Xizmat ta’rifi

1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Ilmiy faoliyat”.
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko’rsatilayotgan “Ilmiy faoliyat” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institutda tashkil etiladigan seminarlar hamda seminar kun tartibiga qo’yilgan masalalar, ilmiy anjumanlar va davra suhbatlari haqida ma’lumotlarga joylashtiriladi.

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

1.4. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Talabalar, professor-o’qituvchilar, ota-onalar, institut rahbariyati va boshqa tashkilotlar.

1.5. Bajarilish muddati

“Ilmiy faoliyat” to’g’risidagi ma’lumotlar interaktiv xizmat bazasiga joylashtiriladi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. Institutda tashkil etilgan ilmiy seminarlar va ularning kun tartibidagi masalalar.
2. Institutda o’tkaziladigan ilmiy anjumanlar va ular to’g’risidagi ommabop ma’lumotlar.
3. Doktorlik dissertatsiyasini shakllantirishga oid talablar.
4. Institutda mavdud ilmiy kengashlar va ular to’g’risidagi ma’lumotlar.

2.2. Batafsil ma’lumot olish

Institut o’quv-uslubiy bo’limi orqali:
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti (www.tkti.uz) ning interaktiv xizmatlar bo’limiga joylashtiriladi.

2.3. So’rovnoma bo’yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog’i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha.

2.4. Xizmat ko’rsatish manzili haqida ma’lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko’chasi 32 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Zarur bo‘lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo‘shimcha hujjat talab etilmaydi.

4.2. Xizmat to‘lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmat ko‘rsatish bosqichlari

Ilmiy faoliyatiga oid ma‘lumotlarni shakllantirish uchun mas‘ul xodimlar tomonidan amalga oshiriladi va ular tomonidan interaktiv xizmat ma‘lumotlar bazasiga 1 ish kuni mobaynida joylashtiriladi. Interaktiv davlat xizmati ma‘lumotlar bazasini texnik ta‘minoti ATM zimmasiga yuklatiladi

4.4. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko‘rsatish dasturi o‘rnatilgan serverda profilaktik ishlar o‘tkazilayotgan bo‘lishi mumkin